

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI**

**SHARQ FALSAFASI VA GERMENEVTIKA
KAFEDRASI**



**"SHARQ ALLOMALARI YOZMA
MEROSINING ILMIY, FALSAFIY,
MA'NAVIY TAFAKKURDAGI O'RNI"**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMANI MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI**

**SHARQ ALLOMALARI YOZMA MEROSINING
ILMIY, FALSAFIY, MA’NAVIY
TAFAKKURDAGI O‘RNI**

**Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari**

Toshkent – 2025

**SHARQ ALLOMALARI YOZMA MEROSINING ILMIY, FALSAFIY, MA'NAVIY
TAFAKKURDAGI O'RNI.** Ilmiy maqolalar to'plami. Toshkent:TDSHU. 2025. 400 b.

Ushbu ilmiy maqolalar to'plami O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-sonli buyrug'ida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida 2025-yil 26-aprelda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida **“Sharq allomalari yozma merosining ilmiy, falsafiy, ma'naviy tafakkurdagi o'rni”** mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Mas'ul muharrir:
PhD, dotsent **J.B. Sulaymonov**

Nashrga tayyorlovchi:
PhD. **L.A. To'rayev**

Taqrizchilar:
falsafa fanlari doktori, professor **E.M. Izzetova**
falsafa fanlari doktori, professor **J.S.Ramatov**

Toshkent davlat sharqshunoslik Universitet Kengashi
tomonidan nashrga tavsiya etilgan
(2025-yilning 3-mayda bo'lib o'tgan 9-sonli majlis qarori).

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025.

3. Зокиров М. Маърифий сабоқлар. “Сангзор” нашриёти. – Жиззах, 2002. – Б. 179.
4. Мирзиёев Ш.М Таълим ва маърифат – тинчлик ва бунёдкорлик сари йўл // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. 1. Т.: „Ўзбекистон”, 2018. – Б. 28.
5. Мирзиёев Ш.М Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. // Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т. 2. Т.: „Ўзбекистон”, 2018. – Б. 25.
6. Носирхўжаев С.Х., Лафасов М.Ф., Зарипов М.З. Маънавият асослари. – Тошкент: “Шарқ”, 2005. – Б. 158.
7. Уватов У. Ҳадис илмининг султони // Имом ал-Бухорий. Илмий-маърифий тўплам. “Имом ал-Бухорий халқаро хайрия жамғармаси” нашри. — Самарқанд: 1998. – Б. 17.
8. Уватов У. Ҳадис илмининг султони. –Самарқанд: Имом Бухорий Халқаро Маркази, 2009. – Б. 64.
9. Шайх Абдулазиз Мансур. Минг бир ҳадис. –Т.: Ғофур Ғулом нашриёти, 2017. – Б. 247.
10. Юз бир ҳадис ва унинг шарҳи. –Тошкент: “Меҳнат”, 1991. – Б. 27.

NASIRIDDIN TUSIYNING VAQT HAQIDAGI QARASHLARI

Abduvaxobova Gulsara Akromjon qizi

*ToshDShU, “Sharq falsafasi va germeneytika” kafedrasida o‘qituvchisi
abduvakhobovagulsara@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqola XIII asrda faoliyat olib borgan eronlik ensiklopedik olim Nasiriddin at-Tusiyning vaqt haqidagi qarashlarning shakllanishi bo‘lib, maqolada Islom olamida faylasuflarning vaqt haqida qisqacha ma’lumot, uning afzalliklari, rasadxonada olib borilgan ilmiy faoliyat haqidagi qarashlari to‘g‘risida qisqacha ma’lumotlar keltirilgan. Maqolada Tusiya va Aristotelning vaqt haqidagi qarashlari qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Arab-musulmon falsafasi, Aristotel, Nasiriddin at-Tusiya, fazo va vaqt, “Hozir” tushunchasi, borliq tushunchasi, fizika, metafizika.

Islom olamiga falsafa kirib kelganidan boshlab, diniy qarashlarga tayangan holda Sharq va G‘arb an‘analariga asoslangan ko‘plab o‘ziga xos falsafiy g‘oyalar paydo bo‘la boshladi. Arab-musulmon olamida tarjimashunoslik faoliyati natijasida turli falsafiy oqimlar paydo bo‘lib, faylasuflarning qarashlarida nafaqat Islom dini ta’siri, balki yunon klassik falsafasining ta’siri sezilarli darajada namoyon bo‘la boshladi. Ba’zi faylasuflar qarashlarida Islom aqidasi bilan ko‘ra, ratsional shaklda borliqqa nazar ko‘proq kuzatilar va ularning qarashlari an‘anaviy Islom qadriyatlaridan farq qilardi. Shu kabi faylasuflar orasida Xo‘ja Nasiriddin Tusiya ham bo‘lib, Nasiriddin Tusiya (1201–1274)

– oʻrta asrlar Islom olamining mashhur olimlaridan biri boʻlib, u astronomiya, matematika, falsafa va tasavvuf sohalariga katta hissa qoʻshgan olim.

Nasiriddin Tusiyning falsafiy qarashlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino falsafasi asosida shakllandi. Tusiy ham obyektiv borliqning mavjudligiga shubha qilmas edi, ammo uning kelib chiqishini aqliy yoʻsinda talqin qilib, emanatsiya nazariyasi nuqtayi nazarida turar edi. Shu oʻrinda falsafiy atama hisoblanuvchi emanatsiya (lotincha yetapagyu – ajralib chiqish, tarqalish) tushunchasiga toʻxtaladigan boʻlsak, bu atama diniy-falsafiy termin hisoblanadi. Bunga koʻra, moddiy olam ilohiy ibtido (Xudo)dan asta-sekin, bosqichma-bosqich ajralib chiqadi. Emanatsiya haqida ham materialistik (Empedokl, Levkip, Demokrit), ham idealistik (Platon, Aristotel, Plotin) taʼlimotlar ilgari surilgan [1,126]. Emanatsiya haqidagi materialistik taʼlimot maʼlum darajada deyarli barcha qadimiy naturfalsafa uchun xos boʻlgan. Masalan, Empedokl koʻrishni bizning hissiy organlarimizning qoʻzgʻalishiga mos tushuvchi elementlarning ajralib chiqishi, tarqalishi deb tushuntirgan. Idealistlar fikricha, gʻoyalar olami tufayli moddiy olam vujudga kelgan.

Abu Nasr Forobiy va Ibn Sino kabi Nasiriddin Tusiy ham materiya, yaʼni moddani har doim boʻlgan, hozir ham mavjud va keyin ham boʻladi (“daxr” – mangu, abadiy) deb hisoblagan. Islom falsafasida abadiylik sifati faqatgina Yaratganga xos sifat, deb hisoblanadi. Jism, modda esa oʻtkinchidir. Bir vaqtda paydo boʻlib, boshqa bir vaqtda zavol topadi. Ruh esa yaratilgan, ammo u abadiy yashaydi, deb talqin etiladi. Shuning uchun musulmon falsafasida moddiyatni abadiy deb biluvchi faylasuflarni daxriylar (“daxr” arabcha – “mangulik”, “abadiylik”) deb atashgan. Shu oʻrinda daxriy deganda, koʻz oldimizga ateist tushunchasi kelishi notoʻgʻri ekanligini taʼkidlash zarur. Daxriy soʻzining tarjimasidan kelib chiqadigan boʻlsak, bu yerda yer yuzida hayotning mangu ekanligini taʼkidlovchi shaxsga nisbatan daxriy iborasi qoʻllanilganiga guvohi boʻlamiz. Daxriylarning olamni abadiy deb bilishiga sabab yer yuzida yoʻqlik va borlik hodisasi ketma-ket va uzluksiz davom etishidir. Agarda bu bir-biriga zid boʻlgan ikki hodisa ketma-ket va uzluksiz, biri ikkinchisini talab qilgan jolda sodir boʻlsa, demak, yer yuzida hayotning tugashi mumkin emas, degan xulosaga kelishadi.

Nasiriddin Tusiy Arastu, Avgustin, al-Kindiy, Ibn Sino, Nosiri Xisrov, Faxriddin Roziy, Dekart, Leybnits, Toland, Boshkovich, Yum, Fixte, Kant, Gegellar singari relyatsion konsepsiya vakili hisoblanib, ularning fikricha, fazo – moddiy dunyoning tarkibiy tuzilishi tartibining namoyon boʻlishi, jismlarning oʻzaro joylashish oʻrinlari va moddiy narsalarning mavjudligi tartibini ifodalaydi. Fazo – juzʼiy holda ham, umumiy holda ham moddiy dunyoning holatiga boʻgʻliqdir; materiya fazoning mavjudligi uchun asosiy vositadir; fazo — nisbiydir [5,20-29]. Vaqt esa materiyaning ajralmas xususiyati, yaʼni uning atributidir. Vaqt materiyaning tashqarida mavjud boʻla olmaydi, vaqt munosabatlari nisbiydir, vaqtning davomiyligi moddiy obyektlarning oʻzaro aloqadorligiga, hisob sistemasiga bogʻliqdir.

Tusiyning vaqt haqidagi qarashlari ham ilmiy va falsafiy asosda shakllangan. Tusiy oʻzining asarlarida, ayniqsa “Zij-i Elxoniy” va “Tafsir al-kitab al-Majistiy” kabi ilmiy asarlarida vaqt haqidagi qarashlarini ifodalagan. Tusiy oʻzining astronomik ishlanmalarida vaqtning doimiy va oʻzgarmas bir jarayon ekanligini taʼkidlagan. U koinotdagi harakatlarni kuzatar ekan, vaqtning yulduzlarning harakati bilan bogʻlagan va

ulardan ma'lum qonuniyatlarni ajratib ko'rsatgan. Vaqtni matematik va fizika nuqtai nazaridan o'rganishga harakat qilgan.

Tusiy tasavvuf falsafasiga oid asarlarida vaqtni faqat fizik o'lchov sifatida emas, balki insonning ruhiy holatlari va ichki dunyosi bilan bog'liq o'rganishga ham urg'u bergan. Unga ko'ra, vaqt insonning ruhiy hollariga, ma'naviy rivojlanishiga ham bog'liqdir. Tusiy astronomiyaning zamonaviy asoslarini yaratgan olimlardan biri bo'lib, vaqtni yulduzlarning harakati va osmon jismlarining tasniflanishiga asoslanib o'rgangan. U vaqtni nafaqat odatdagi kundalik hayotda, balki koinotning har bir jarayonida bir qator tabiiy qonuniyatlar orqali o'rganishning zarurligini ta'kidlagan.

Tusiyning fikricha, vaqtning boshlang'ich nuqtasi Yaratgan tomonidan belgilangan va shundan boshlangan. Xuddi shunday uning oxiri ham Yaratganga bog'liq. Ularning fikricha, vaqt bu – alohida bo'linmas lahzalarning o'z vaqtida sodir bo'lish birligidir. Vaqtning bu bo'linmas daqiqalari – ikki bir-biriga zid bo'lgan hodisalarni: yo'qlik va paydo bo'lish hodisalarini vujudga keltiradi. Va bu hodisalar uzluksiz, davomiy va birin-ketin yuzaga keladi. Har bir narsa o'z vaqtida, ya'ni ma'lum zamon ichida sodir bo'ladi, shu sababli ham hech bir voqea-hodisani o'z vaqtida sodir bo'lmagan, deb xulosa qilib bo'lmaydi. Bundan tashqari bir vaqtning o'zida ham harakat, ham harakatsizlik sodir bo'lishi mumkin emas. Xuddi shu singari paydo bo'lish hamda zavol topish ham bir vaqtning o'zida emas, balki birin-ketin sodir bo'ladi. Bu qoidaga asoslanib, Tusiy ketma-ket sodir bo'luvchi voqea-hodisalar vaqtni tashkil qiladi, degan g'oyani ilgari surgan. Va albatta, bu ikki bir-biriga qarama-qarshi jarayonlar bir-biriga zid bo'lishiga qaramay biri ikkinchisini talab qiladi. Bularning hech biri yolg'iz holda vaqtning harakatlanish jarayonini yuzaga keltira olmaydi. Ular bir-biriga zid bo'lishiga qaramay, bir-biriga bog'liq va o'zaro aloqador hisoblanadi. Ya'ni ular o'rtasida dialektik jarayon sodir bo'ladi. Tusiy vaqtni davrlashtirishda xuddi Arastu singari o'tmish, hozir va kelajak tushunchalarini kiritadi. Hozir sodir bo'layotgan hodisalar vaqt o'tishi bilan o'tmishga yoki kelajakka aylanishi mumkin.

Antik davrning buyuk mutafakkiri, "birinchi muallim" nomiga sazovor bo'lgan yunon faylasufi Arastuning vaqt va uning harakatlanish jarayonlariga to'xtalgan fikrlaridan misol keltirsak, Arastuning vaqt borasidagi fikrlari orasida "hozir" tushunchasi alohida o'rin tutadi. Mashhur faylasuf Arastu esa o'tmish, hozir va kelajak tushunchalarini kiritgan. Hozir sodir bo'layotgan hodisalar vaqt o'tishi bilan o'tmishga yoki kelajakka aylanishi mumkin.

Arastuning fikricha, "hozir" o'tgan zamonni kelgusi zamon bilan bog'laydi. Ammo ular o'rtasida mavjud bo'lgan "hozir" uzoq vaqtga cho'ziladigan muddatga ega emas va "hozir" tushunchasi biz u to'g'risida o'ylaganimizcha o'tib ketadi. Demak, biz "hozir"ni zamonlar o'rtasidagi alohida bir zamon sifatida tasavvur qilishimiz mumkin. Bu esa, shundan dalolat beradiki, zamonning ma'nosi "avval" va "keyin"dan boshqa narsada ifodalanmaydi va u muddatdan boshqa narsa emas. Demak, zamon harakatni hisoblaydigan muddatdir [6].

Aristotel ta'limotiga ko'ra, "Vaqt bo'lmasa, hozir ham bo'lmaydi, agar hozir bo'lmasa vaqt ham bo'lmaydi ... "Biroq, "hozir" vaqtning bir qismi emas, "...chunki bu qism butunni o'lchaydi va vaqt faqatgina "hozir"dan iborat emas, balki ana shu "hozir"ning turli ko'rinishlaridan iborat [6]. Bu fikri orqali Arastu "hozir" vaqti kelib

o'tmishga va kelajakka aylanishi va aynan mana shu tushunchalar vaqtni ifodalashini ta'kidlaydi. Aristotel shunday deydi: "Nihoyat, har bir kishi "hozir"ni kuzatib borish imkonsizligini e'tirof etishi kerak". Bu bilan Aristotel inson vaqt o'tib borishini faqatgina nazariy jihatdan anglay olish mumkinligini, hissiyotlarimiz esa buni anglash uchun yetarli emasligini ta'kidlamoqchi. Chunki inson bir vaqtning o'zida hamma makon va zamonlarda birdek mavjud bo'la olmaydi. Inson vaqti kelsa, hattoki, o'z tanasida va ongida soniyalarda cheksiz o'zgarishlar sodir bo'layotganidan ham bexabar qoladi. Aristotelning o'zi, vaqt toifasiga tegishli asosiy savollarga va "hozir" tushunchasiga to'liq javob bera olishiga ishonmagan. Buning qiyinligi haqida gapirayotgani ajablanarli emas, albatta. "Hozir" xususiyatlariga ko'ra hal qilinishi noaniq bo'lgan tushunchadir: "...chunki vaqt qachon va qanday tabiat bor, bular qanday qilib sodir bo'ladi kabi savollarga aniq javob bera olmaydi. Vaqt oqimi bizni boshqalardan va biz ilgari bilgan narsadan boshqasiga o'tkazib yuboradi" [3,175], degan izohlar bilan vaqtning noaniq tushuncha ekanligini tushuntiradi. Yuqordagi fikrlar asosida ko'rishimiz mumkinki, Nasiriddin Tusiyning fazo va vaqt haqidagi qarashlarining shakllanishida ham Aristotel g'oyalarining o'rni sezilarli darajaga ega.

At-Tusiyning ontologiyasida birinchilardan evolyutsiyaviy g'oyalar keltirilgan. Uning ta'limotiga ko'ra, olamda avvaliga, asos elementlar bo'lgan. So'ngra, ulardan minerallar, o'simliklar, hayvonlar va odamlar paydo bo'la boshlagan [7]. Boshida xudoyi taolodan birinchi aql paydo bo'lgan. So'ngra birinchi aqldan to'rt unsur paydo bo'lib, ulardan minerallar va o'simliklar, hayvonlardan esa inson paydo bo'lgan. Inson o'zini bir-necha bosqichlar orqali molik darajasiga yetqazadi va o'z zotida haq subhonani mujassam etadi. Ana shuni hukamolar farz doirasi deyishadi: Min al-mabdo va ila-l-ma'od (avvaldan oxirga qaytish) [2,101].

Shu tarzda, Tusiy vaqtni faqat nazariy ilmiy asosda o'rganib qolmay, balki uning falsafiy va ruhiy jihatlarini ham ko'rgan, koinotning va insonning o'zaro bog'liqligini tushunishga intilgan. Uning vaqt haqidagi bunday xulosalariga yaxshilab nazar soladigan bo'lsak, vaqtning inson uchun nafaqat fizik jarayon, balki ruhiy jarayon ekanligini inobatga olganligini guvohi bo'lamiz. Bunday qarashlar Nasiriddin Tusiydan anchayin keyingi davrda yashab faoliyat oli borgan nemis olimi Albert Eynshteyn qarashlari va u yaratgan nisbiylik nazariyasiga juda yaqin ekanligini ko'ramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Falsafa. Ensiklopedik lug'at. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – 344 b.
2. Қодиров М. Насриддин Тусийнинг «Ахлоқи Носирий» асари ва унинг таҳлили. – Т., 2014. – 210 б.
3. Аристотель. Физика. На основе перевода В.П. Карпов. – М.: «Азбука-Аттикус», 1936. 322 с.
4. Кенжаева Л. Логическое учение Насриддина Туси (на основе его трактата "Асас ул-иктибас"). – Душанбе, 2019. – 169 с.
5. Тураев Б.О. Пространство. Время. Развитие. Т.: Фан. 1992.
6. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=24059633>
7. <https://arboblar.uz/uz/people/nosiruddin-at-tusij>

MUNDARIJA

<i>I. SHARQ ALLOMALARI YOZMA MEROSINI TADQIQ ETISH: XORIJIY TAJRIBA, ISTIQBOLLI IZLANISHLAR VA MUAMMOLAR</i>		
QODIROV M.	<i>SHARQ QO'LYOZMALARIDA ARASTU ASARLARINING TALQINI</i>	6
MASHARIPOVA G.	<i>XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI ALLOMALARI TADQIQOT MANBALARINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING TARIXIY-FALSAFIY TAHLILI</i>	13
АГЗАМХОДЖАЕВА Ш.	<i>ИСТОРИЧЕСКИЕ ИСТОЧНИКИ О ФИЛОСОФСКОМ МИРОВОЗЗРЕНИИ О ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ, СОДЕРЖАЩИЕСЯ В ЕГО СОБСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ</i>	19
SAYDALIYEVA N.	<i>ABU NASR FAROBIIY HAQIDA — ARAB, FORS VA TURK OLIMLARI ASARLARINING TAHLILI</i>	25
SULAYMONOV J.	<i>ABU ZAYD ABDURAHMON IBN XALDUNNING “MUQADDIMA” ASARIDA IJTIMOIIY FALSAFIY G'OYALAR TAHLILI</i>	31
IKRAMOVA I.	<i>IBN RUSHDNING “FASL AL-MAQĀL FIYMA BAYNA AL-HIKMATI VA ASH-SHARI'ATI MIN AL-ITTISAL” ASARIDAGI ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK G'OYALARINING GERMENEVTIK TAHLIL</i>	37
ТҶҲАЕВ Л.	<i>МАҲМУД ЗАМАХШАРИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШИ МАСАЛАСИ “РАБИҲ УЛ-АБРОР” АСАРИ МИСОЛИДА</i>	43
JAMAHMATOV K.	<i>SULTON VALAD VA BURHONIDDIN TERMIZIY ASARLARINING QIYOSIY ANALIZI</i>	48
NISHONOV S.	<i>MAMLAKATIMIZDA TA'LIM VA TARBIYA PARADIGMASI ASPEKTIDA SHARQ ALLOMALARI MEROSINING DOLZARB MASALALARI</i>	54
KARIMOV N.	<i>HAKIM TERMIZIYNING ISLOM ILMLARI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI</i>	59
TOG'AYEV N.	<i>IMOM AL-BUXORIY HADISLARIDA ILM O'RGANISH MASALALARI XUSUSIDA</i>	64
ABDUVAXOBOVA G.	<i>NASIRIDDIN TUSIYNING VAQT HAQIDAGI QARASHLARI</i>	68
SHAVKATOV SH.	<i>MUHAMMAD RIZO OGHIYNING "QASIDAI NASIHAT" ASARIDA IJTIMOIIY-FALSAFIY G'OYALAR VA ULARNING GERMENEVTIK TAHLILI</i>	72
ХОЛБОЕВА Р.	<i>УМАР АЛ-ЧАҒМИНИЙ ВА АҲМАД АЛ-ҲАРҒОНИЙ ФАЛСАФИЙ-КОСМОЛОГИК ҚАРАШЛАРИДАГИ БОҒЛИҚЛИК</i>	76
MARDONOVA M.	<i>RUMIY ILMIY FAOLIYATIDA INSON RUHIY TABIATI HAQIDAGI QARASHLARNING IRFONIIY TAHLILI</i>	81
XALILOV A.	<i>ABULQOSIM FIRDAVSIYNING “SHOHNOMA” ASARIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK QARASHLAR TAVSIFI</i>	84
DILMURODOV E.	<i>“IRFON” ASARIDA INSON MUAMMOLARINING FALSAFIY VA GERMENEVTIK QARASHLARI</i>	89
SAFAROV M.	<i>ABU ABDULLOH XORAZMIYNING “MIFTAH UL-ULUM” ASARIDA FANLAR TASNIFI</i>	95
SHOMUQIMOV L.	<i>I. GASPRINSKIYNING IJTIMOIIY TARAQQIYOTNING INTEGRAL MODELINING FALSAFIY TAHLILI</i>	101
MAMADALIYEV A.	<i>FARIDUDDIN ATTOR HAYOTI VA FALSAFIY — ADABIY MEROSI</i>	106
ESONALIYEVA G.	<i>SHARQ ALLOMALARI YOZMA MEROSINING JAHON SIVILIZATSIYA JARAYONLARIGA QO'SHGAN HISSASI</i>	111
TURSUNOV R.	<i>FUZULIYGA IZDOSHLIK (NABIXON CHUSTIYNING TATABBU' VA TAXMISI MISOLIDA)</i>	114
TOJIBOYEV M.	<i>ALIXONTO'RA SOG'UNIY – ALLOMA VA DAVLAT ARBOBI</i>	117
BANNAYEV A.	<i>MAHMUD ZAMAXSHARIYNING HAYOTI VA IJODI HAMDA “ATVOQ UZ-ZAHAB” ASARI</i>	121